# TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ERONSHUNOSLIK VA AFG‘ONSHUNOSLIK ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING HISOBOTI

**1. Magistrlik dissertatsiyasi mavzulari muhokamasi**

2025-yilning 10-oktabr kuni markazga biriktirilgan mutaxasisliklarning magistrlik dissertatsiyasi mavzulari markazning ekspert guruhi tomonidan ekspertizadan o‘tkazildi va universitet kengashiga tavsiya etildi.

| № | Magistrantning F.I.Sh. | O‘zbek lotin yozuvida | Rus tilida | Ingliz tilida | Ilmiy rahbar |
|---|---|---|---|---|---|
| **70230101-Lingvistika (fors)** | | | | | |
| **1.** | Mamadaliyeva Surayyo Murodjon qizi | Fors va o‘zbek tillarida ot va sifat yasovchi modellar tahlili | Анализ моделей образования существительных и прилагательных в персидском и узбекском языках. | Analysis of noin and adjective formation models in Persian and Uzbek languages | Azimdjanova Dinara Amirdjovna f.f.n., dotsent |
| **2.** | Safarmatova Orzigul Baxtiyor qizi | Tehron toponimlarining struktur-semantik xususiyatlari | Структурные и семантические особенности тегеранских топонимов | Structural-semantic features of Tehran toponyms | Azimdjanova Dinara Amirdjovna f.f.n., dotsent |
| **70230101-Lingvistika (dariy)** | | | | | |
| **1.** | Ibodova Jasmina Samariddin qizi | Dariy tili ijtimoiy-siyosiy leksikasida pashtucha o‘zlashmalar (gazeta matnlari asosida) | Заимствования из пушту в социально-политическом лексиконе языка дари (на основе газетных текстов) | Pashto borrowings in the socio-political lexicon of Dari language (based on newspaper texts) | Uktamova Xilolaxon Azamat qizi PhD, katta o‘qituvchi |
| **2.** | Raxmonqulova Bibirobiya Kuvondiq qizi | Dariy tilida zoonim komponentli maqollarning lingvomadaniy tahlili | Лингвистический и культурный анализ пословиц с зоонимическими компонентами в дари. | Linguistic and cultural analysis of Proverbs with Zoonymic components in Dari | Uktamova Xilolaxon Azamat qizi PhD, katta o‘qituvchi |
| **3.** | Miraxatova Nargiza Mahmudjon qizi | Dariy tilida somatik komponentli maqollar semantik-struktur tahlili | Семантико-структурный анализ пословиц с соматическим компонентом в языке дари. | Semantic-sturctural analysis of proverbs with somatic components in | Axmedova Dilfuza Rafukjanovna DSc, prof.v.b. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | the Dari language | |
| **70230101-Lingvistika (pashtu)** | | | | | |
| **1.** | Akromova Shodiyaxon Ikrom qizi | Pashtu lahjalarining adabiy til bilan munosabati (Qandahor, Nangarhor, Kobul va Paktiyo lahjalari asosida) | Взаимосвязь пуштунских диалектов с литературным языком (на основе диалектов Кандахара, Нангархара, Кабула и Пактии) | The Relationship of Pashto Dialects to the Literary Language (based on the dialects of Kandahar, Nangarhar, Kabul and Paktia) | Abduvaliyeva O‘g‘iljon Shuhrat qizi PhD, katta o‘qituvchi |
| **2.** | Panoyeva Marjona Shokir qizi | Pashtu va o‘zbek tillarida ko‘makchi fe’llarning semantik tasnifi | Семантическая классификация вспомогательных глаголов в пушту и узбекском языке. | Sematic classification of auxiliary verbs in Pashto and Uzbek languages | Alimova Xolida Zikrillayevna f.f.d., professor |
| **70230104-Adabiyotshunoslik (fors)** | | | | | |
| **1.** | Abdullayeva Zilola Ziyodulla qizi | Said Tashakkuriyning “Yomg‘ir yuki” romanida Gavharshodbegim obrazi (tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalalari) | Образ Гавхаршодбегима в романе Саида Ташаккури «Бремя дождя» (вопросы исторической правды и художественной выразительности). | The Image of Gawharshad Begim in Said Tashakkori’s Novel “Burden of Rain” (Issues of Historical Truth and Artistic Fiction) | Turdiyeva Oydin Zafardinovna f.f.d., dotsent |
| **2.** | Jo‘rayeva Ziyodaxon Husniddin qizi | Amuzoda Xaliliy hikoyalarida muqovamat qarashlar | Взгляды на сопротивление в рассказах Амузады Халили | Resistance perspectives in Amuzoda Khalili’s stories | Turdiyeva Oydin Zafardinovna f.f.d., dotsent |
| **3.** | Raxmonaliyeva iroda Akrom qizi | Faridun Mushiriy ishqiy she’riyatida badiiy tafakkurning voqelanishi | Реализация художественной мысли в романтической поэзии Фаридуна Мушири | The manifestation of artistic thinking in the love poetry of Faridun Moshiri | Azimdjanova Dinara Amirdjovna f.f.n., dotsent |

**2. Tayanch doktoranturaga qabul qilinganlarni ilmiy tadqiqotlar mavzulari muhokamasi**

| № | Doktorantning F.I.Sh. | Ixtisoslik shifri | Mavzu nomi | Ilmiy rahbari |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tohirov Navro‘zbek Sharof o‘g‘li | 10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti | Pashtu tilida reduplikativ so‘zlarning struktur - semantik tahlili | Mannonov Abdurahim Mutalovich f.f.d., professor |
| 2. | Begmatova Diloromxon A’zamxon qizi | 10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti | Dariy tilidagi siyosiy matbuotda evfemizmlar ning diskursiv-strategik qo‘llanilishi (zamonaviy OAV materiallari asosida) | Alimova Xolida Zikrillayevna f.f.d., professor |
| 3. | Muxamedzyanova Farizaxon Elshod qizi | 10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik | Forscha referensial ma'no tarjimasining ingliz tilidagi ifodasi (I. Pezeshkzodning “Napoleon tog‘ajon” asari misolida). | Mirzaxmedova Hulkar Vosilovna DSc, professor |
| **Mustaqil tadqiqotchi** | | | | |
| 1. | Jumayev Abror Jalil o‘g‘li | 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti | Dariy tili harbiy terminologiyasi ning leksik-semantik tizimi va standartlashtirish muammolari | Alimova Xolida Zikrillayevna f.f.d., professor |
| **DSc (Mustaqil tadqiqotchi)** | | | | |
| 1. | Karabayev Sardor Yuldashevich | 10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti | Pashtu tarixiy romanchiligi: janr xususiyatlari, tarixiy haqiqat va badiiylik masalasi | Mannonov Abdurahim Mutalovich f.f.d., professor |

**3. Xorijda ma’ruza**

2025-yilning 20-26-noyabr kunlari Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi a’zolari M.R. Xabibova va N.K. Kabirova Hindistonning Javaharla’l Neru Universiteti Til, adabiyot va madaniyatshunoslik maktabi hamda Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazida xizmat safarida bo‘lib qaytdilar.








2025-yilning 24-noyabr kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi a’zolari Hindistonning Javaharla’l Neru universiteti Markaziy Osiyo va Fors tadqiqotlari markazi bilan hamkorlikda online ma’ruza tashkil qildilar. DSc, prof. X. Alimova مبانی اللغه اثر میرزا مهدی خان: دستور زبان ازبکی قدیم در فارسی (“Mirzo Mehdixonning “Maboni ul-lug‘at” asari forsiydagi eski o‘zbek tili grammatikasi” ), DSc, prof.v.b. D. Axmedova پژوهش‌های میان‌فرهنگی در ایران‌شناسی معاصر (“Zamonaviy eronshunoslikda madaniyatlararo tadqiqotlarning ahamiyati”), DSc, dots. O. Turdiyeva ادبیات زنان در دوره پس از انقلاب اسلامی (“Islom inqilobidan keyingi davr ayollar adabiyoti”) kabi mavzularda ma’ruza qildilar.










2025-yilning 13-17-oktabr kunlari Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi katta o‘qituvchisi, PhD O‘. Abduvaliyevaning Budapesht shahridagi Etvosh Lorand universitetining Itimoiy gumanitar fanlar fakulteti Eronshunoslik kafedrasida 8 soatlik ma’ruza mashg‘ulotlari quyidagi mavzularda o‘tkazildi.

2026-yilning 18-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining Polshadagi Elchixonasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Varshava universiteti hamkorligida Varshavada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston madaniyati kuni doirasida Alisher Navoiyning “Xamsa” asari konkordanslari taqdimoti o‘tkazildi. Taqdimot doirasida TDSHU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi dotsenti Nodir Nuriddinov tomonidan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ma’ruza o‘qildi.





2026-yilning 20-21-aprel kunlari Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi dotsenti Oydin Turdiyeva Istanbul universiteti Farobiy nomidagi Yevrosiyo tadqiqotlari markazi rahbari professor Abdullah Kiziljik bilan uchrashdi hamda adabiyot fakulteti talabalariga **“Islom inqilobidan keyingi davr fors hikoyachiligi”** mavzusida ma'ruza qildi.

### 4. Xorijlik olimlarning ilmiy ma’ruzalari



2025-yilning 19–20-noyabr kunlari Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy markazida Eron Islom Respublikasi Farhangiyon universiteti dotsenti Shohre Sodot Sajjodining “Eronda chet tilini bilish darajasini aniqlash” mavzusidagi onlayn ilmiy-nazariy seminari bo‘lib o‘tdi.

2026-yilning 10-fevral kuni TDShU Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida Eronning Qazvin shahridagi Imom Xumayniy xalqaro univertsiteti professorlari Alirezo Husayniy va Ya’qub Xazzoyining ilmiy ma’ruzalari tinglandi. Mazkur tashrif davomida Ya’qub Xazzoyi “**Eron taomlari va uning rivojlanish jarayoni**” mavzusida, Alirezo Husayniy esa “**Fors tili va adabiyotining arab tiliga ta’siri**” mavzusida ma’ruza o'qidilar.



2026-yilning 11-fevral kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida Pokistonning Balujiston universiteti professori Dr. Ali Kumail Qazalbashning **“Mirzo Bedil va Xushholxon Xattak she’riyatining qiyosiy tahlili”** mavzusidagi ilmiy ma’ruzasi tinglandi. Mazkur tashrif davomida ilmiy ma’ruza Dr. Ali Kumail Qazalbash tomonidan fors va pashtu tillarida taqdim etildi.



2026-yilning 30-mart kuni Vengriyaning Karoli Gaspar universiteti professori Miklos Sarkozy Erasmus+ ICM (International Credit Mobility) dasturi doirasida Eronshunoslik va afg'onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida “**Dīwān-i Qāʾimiyyāt va Eron hamda Markaziy Osiyodagi mo‘g‘ul bosqini: Yangi topilgan Fors qasidalari to‘plami va ularning XIII asr mo‘g‘ul tarixidagi ahamiyati”** nomli ilmiy ma’ruzasini taqdim qildi.



2026-yilning 16-aprel kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida Oksford universiteti Osiyo va Yaqin Sharq tadqiqotlari fakulteti Eronshunoslik kafedrasi professorlari Dr. Edmund Herzig, Dr. Farniyaz Zaker hamda Miss Ani Beyt-Movsessning **“Oksfordda fors tili tadqiqotlari”** mavzusidagi ilmiy ma’ruzalari tashkil etildi.









2026-yilning 4-may kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida Jawaharlal Nehru universiteti professori, Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrasi mudiri Dr. Akhlaq Ahmad Ahan “AMIR XUSRAV VA MIRZO BEDIL (SHE'RIY USLUBLARINING QIYOSIY TAHLILI)” mavzusida ilmiy ma’ruza taqdim etdi,

## 5. Kitoblar nashri

Eronshunoslik va afg‘onshunoslik yo‘nalishida professor A. Mannonov hamda oliy maktab dotsenti O. Turdiyevaning “مجموعه داستان های کوتاه فارسی” nomli antologiyasi nashrdan chiqdi.

Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi a’zosi A. Nishanbayevaning “Alisher Navoiy “Xamsa” asaridagi forsiy affiksoidlar bilan yasalgan so‘zlarning struktur-semantik tahlili” nomli monografiyasi chop etildi.

## 6. Nazariy seminarlar

| № | Nazariy seminar mavzusi | O‘tkazilgan vaqti | Ma’ruzachi |
|---|---|---|---|
| 1. | Mazdak Anushening صرف در نحو از کمینه گرایی تا صرف توزیع asaridagi qo‘shma so‘zlar tasnifi | 2025-yil noyabr | PhD., dots. Nuriddinov N. |
| 2. | Dariy va fors tillari lug‘at tarkibining qiyosiy tavsifi (Hasan Anusha va G‘ulomrezo Xudobandaluning” فارسی ناشنیده: فرهنگ واژه ها و اصطلاحات فارسی و فارسی شدۀ کاربردی در افغانستان” (Техрон, 1391/2012) луғати асосида) | 2026-yil mart | DSc, prof. Alimova X. |
| 3. | “مثل” komponentli birikmalarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari | 2025-yil noyabr | DSc, dots. Axmedova D. |
| 4. | “Tasavvuf terminlari tizimining Markaziy Osiyoda shakllanishi va tarixiy rivojlanishi” | 2026-yil may | f.f.n, dots. Vaxidov A. |
| 5. | Fors adabiyotida adabiy oqimlar | 2026-yil mart | DSc, dots. Turdiyeva O. |
| 6. | Особенности передачи иноязычных аббревиатур в персидском языке | 2026-yil yanvar | f.f.n., dots. Azimdjanova D. |
| 7. | Afg‘oniston dariyzabon adabiyoti rivojlanishida jangnomanavislikning o‘rni | 2025-yil dekabr | PhD., dots. Kabirova N. |
| 8. | Pashtu lahjalarining adabiy til bilan bo‘lgan munosabati va ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni (Qandahor, Nangrahor, Kobul va Paktiyo lahjalari asosida) | 2026-yil aprel | PhD., o‘qit. Abduvaliyeva O‘. |
| 9. | Dariy tilshunosligida so‘z turkumlarini tasniflash muammolari - | 2026-yil may | PhD., kat.o‘qit. Uktamova X. |

## 7. Ochiq ma’ruza



2026-yilning 26-mart kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi direktori, professor Alimova Xolida Zikrillayevnaning “Sanglox” – fors lug‘atchiligining yuksak namunasi” mavzusidagi ochiq ma’ruzasi o‘tkazildi.

## 8. Dissertatsiya muhokamalari

2025-yilning 20-sentabr kuni 10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi tayanch doktorantlari Nazarova Afzunaning “Hozirgi zamon dariy adabiyotida “yangi she’r” genezisi va shakllanish jarayonlari (Boriq Shafeiy va Partav Nodiriy she’riyati misolida)” mavzusidagi hamda Jumayeva Kamolaning “Xoqoniy Shirvoniy ijodida qasida janri” mavzusidagi PhD dissertatsiyalari himoyasi bo‘lib o‘tdi.

2025-yilning 6-dekabr kuni 10.00.05 - Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi tayanch doktoranti Yusupova Dinoraning- “Siyovush Kasroiy she’riyatida an'ana va novatorlik” mavzusidagi PhD dissertatsiyasining kengaytirilgan muhokamasi bo‘lib o‘tdi.



2026-yilning 12-mart kuni Nishanbayeva Aziza Ilgisovnaning 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayyorlagan “Alisher Navoiy “Xamsa” asaridagi forsiy affiksoidlar bilan yasalgan so‘zlarning struktur-semantik tahlili” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya himoyasi bo‘lib o‘tdi.

## 9. Xalqaro konferensiyalarda ishtirok

2026-yil 22-aprel kuni Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi dotsenti O. Turdiyeva Istanbul shahridagi Fotih Sultan Mehmet vakif Universitetida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi.




**10. Talabalar konferensiyasi**

2026-yilning 14-mart kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi tomonidan iqtidorli talabalarning “Yosh eronshunoslar” konferensiyasi o‘tkazildi. Mazkur anjumanda fors, dariy va pashtu tillarini o‘rganayotgan universitet bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o‘z ilmiy maqolalari bilan Eron va afg‘on tilshunosligi, adabiyotshunosligi va tarjimashunosligi yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etdilar. Mazkur konferensiyada universitetimizdan 30 dan ortiq talabalar faol ishtirok etdilar va sertifikat bilan taqdirlandilar.



**11. Xalqaro ilmiy xizmat safari**

2026-yil 8–14-may kunlari TDShUda amalga oshirilayotgan AL-9224104589-sonli amaliy loyiha rejasiga muvofiq, Mo‘g‘uliston Respublikasiga ilmiy xizmat safari tashkil etildi. Safardan ko‘zlangan asosiy maqsad — VII–XI asrlarga oid qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni bevosita joyida o‘rganish (dala tadqiqoti)

hamda Mo‘g‘ulistonning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ikki tomonlama akademik, ilmiy va strategik hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘ldi. Mazkur safarda Eronshunoslik va afg‘onshunoslik ilmiy-tadqiqot Markazi a’zosi M. Kalandarov ham ishtirok etdi. Safar davomida Mo‘g‘uliston Milliy universiteti, Mo‘g‘uliston Fanlar akademiyasi, Chingizxon milliy muzeyi, Tunyuquq bitigtoshi majmuasi, Bilgaxoqon va Kultigin bitigtoshlari hududiga tashrif buyurildi.

**Markaz direktori** **X.Z. Alimova**

**Markaz kotibasi** **X.A. Uktamova**